

“Elektron hukumat” tizimini samarali faoliyat ko’rsatish va joriy etish bo’yicha Agentlikda seminar

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yil 27-iyundagi “O’zbekiston Respublikasida Milliy axborot-kommunikatsiya tizimini yanada rivojlantirish choralari to’g’risida”gi PK-1989-son qarori asosida ishlab chiqilgan “2013-2020-yillarda O’zbekistonda telekommunikatsiya texnologiyalari, aloka infrastrukturasi va tarmog’ini rivojlantirish dasturi”ga muvofiq, mamlakatimizda “elektron hukumat” tizimining axborot tizimlari komplekslari va ma’lumotlar bazalarini yaratish bo’yicha 28 ta yirik loyiha va chora-tadbirlar, shu jumladan, ma’lumotlar milliy bazasi, axborot tizimlari va ma’lumotlarni qayta ishlash idoralararo markazi tashkil qilinishi, idoraviy axborot tizimlarining o’zaro integratsiyasi va davlat xizmatchilarining elektron hukumat tizimiga oid bilimlari va ko’nikmalarini oshirish va rivojlantirish yuzasidan tayyorlash va qayta tayyorlash masalalariga alohida e’tibor qaratilgan.

Joriy yilning 6-yanvar kuni O’zbekiston avtomobil va daryo transporti agentligida O’zbekiston Respublikasi “Elektron hukumat to’g’risida”gi 2015-yil 9-dekaborda qabul qilingan Qonunning mazmun mohiyati bo’yicha seminar bo’lib o’tdi.

Seminarni Agentlikning boshliq o’rinbosari Sh.Shavahobov oolib berdi.

Mazkur qonunning mazmun-mohiyati, elektron hukumatning asosiy vazifalari, bu tizimni yaratish va yanada takomillashtirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar haqida gapirib berish uchun so’z O’zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi huzuridagi “Elektron hukumat” tizimini rivojlantirish Markazi Qonun hujjatlarini rivojlantirish va takomillashtirish bo’limi boshlig’i Dilbarxon Xoliqovaga berildi

- Elektron hukumat — davlat organlarining jismoniy va yuridik shaxslarga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo’llash yo’li bilan davlat xizmatlari ko’rsatishga doir faoliyatini, shuningdek idoralararo elektron hamkorlik qilishni ta’minlashga qaratilgan tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar va texnik vositalar tizimi, deb so’zini boshlaydi Dilbar Xoliqova. - Elektron hukumatning asosiy vazifalari : davlat organlari faoliyatining samaradorligini, tezkorligini va shaffofligini ta’minlash, ularning mas’uliyatini va ijro intizomini kuchaytirish, ariza beruvchilar uchun mamlakatning butun hududida davlat organlari bilan o’zaro munosabatlarni elektron hukumat doirasida amalga oshirish bo’yicha imkoniyatlar yaratish, davlat organlarining ma’lumotlar bazalarini, Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalini va elektron davlat xizmatlarining yagona reestrini shakllantirish, aholi va tadbirkorlik sub’ektlari bilan o’zaro munosabatlarni amalga oshirishda elektron hujjat aylanishi, davlat boshqaruvi tizimida «bir darcha» printsipini joriy etish, tadbirkorlik sub’ektlarini elektron hujjat aylanishidan foydalanishga o’tkazish, tadbirkorlik sub’ektlarining elektron tijorat, Internet jahon axborot tarmog’i orqali mahsulotni sotish va xaridlarni amalga oshirish tizimlaridan foydalanishini kengaytirish, naqd bo’limgan elektron to’lovlar, davlat xaridlarini amalga oshirish, masofadan foydalanish tizimlarini va bank-moliya sohasidagi faoliyatning boshqa elektron shakllarini rivojlantirishdir.

O’zbekistonda elektron hukumat tizimini joriy etish: interaktiv xizmatlar imkoniyatini taqdim etish; hokimiyat organlari hisobotlarining ochiq-oydinligi; xizmatlarga ulanishning qulayligi va individuallashtirilganligi; siyosiy jarayonlarda fuqarolar ishtirokining axborotlashganligi va natijaliligi; axborotlarning erkin almashinuvi; aholi va biznes sohasiga davlat xizmatlari ko’rsatishni optimallashtirish; fuqarolar o’z-o’ziga xizmat imkoniyatlarini qo’llab-quvvatlash va kengaytirish; mamlakat rahbariyatining barcha saylovlari hamda davlat boshqaruvi jarayonlarida ishtiroklari darajasini oshirish va boshqalarni yanada yaxshilashga qodir davlat boshqaruvining mukammal elektron apparatini yaratishdan iborat, ekanligini ma’ruzachi qayd etib o’tdi.

Seminarda aholiga va tadbirkorlarga interaktiv davlat xizmatlarini ko’rsatish sifatini yaxshilash maqsadida ishga tushirilgan my.gov.uz – Interaktiv davlat xizmatlarining yagona portalini faoliyati, ko’rsatilayotgan xizmatlar, Yagona portaldan foydalanish haqida ham batafsil ma’lumot berildi.

Mazkur seminarda Agenlikning markaziy apparati, ATRNTT respublika markazi xodimlari ishtirok etib, o'zlarini qiziqtirgan barcha savollarga to'laqonli javob oldilar.